

KICHIK VA O'RTA BIZNESNI SOLIQQA TORTISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Yakubov Sanatbek Ravshanbekovich

Ma'mun universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi E-mail:

yakubov_sanatbek@mamunedu.uz

Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich

Ma'mun universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida dots.v.v E-mail: niyozmetov_doniyor@mamunedu.uz

O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich

Ma'mun universiteti Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi E-mail: uurinboyev@mamunedu.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning nazariy asoslari, asosiy muammolari va ularning yechimlari tahlil etilgan. Optimal soliq nazariyasi (Mirrlees), soliq muvofiqligining iqtisodiy modeli (Allingham-Sandmo) va soliq yukining kichik va o'rta biznes faolligiga ta'siri (Djankov) asosida muammolar ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *kichik va o'rta biznes, soliq yuki, soddalashtirilgan soliq tizimi, soliq muvofiqligi, norasmiy sektor, soliq islohoti, tadbirkorlik muhiti.*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические основы, основные проблемы налогообложения малого и среднего бизнеса (МСБ) и пути их решения. На основе теории оптимального налогообложения (Mirrlees), экономической модели налогового соответствия (Allingham-Sandmo) и влияния налоговой нагрузки на активность МСБ (Djankov) рассмотрены ключевые проблемы.*

Ключевые слова: *малый и средний бизнес, налоговая нагрузка, упрощённая система налогообложения, налоговое соответствие, неформальный сектор, налоговая реформа, предпринимательская среда.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical foundations, key problems of small and medium enterprise (SME) taxation, and their solutions. Based on optimal tax theory (Mirrlees), the economic model of tax compliance (Allingham-Sandmo), and the impact of tax burden on SME activity (Djankov), the core challenges are examined.*

Keywords: *small and medium enterprise, tax burden, simplified tax system, tax compliance, informal sector, tax reform, business environment.*

KIRISH

Jahon iqtisodiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, kichik va o'rta biznes barcha mamlakatlarda iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsiyalarning asosiy manbai sifatida tan olinganini ko'ramiz. Biroq kichik va o'rta biznes toifalarining soliqqa tortilishi ko'pincha yirik korporatsiyalar bilan taqqoslaganda nisbatan og'irroq va murakkab bo'ladi, chunki soliq muvofiqligi xarajatlari ularda daromadga nisbatan katta ulushni tashkil etadi.

Kichik va o'rta biznesni soliqqa tortish muammosi zamonaviy soliq siyosatining markaziy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu masala alohida ahamiyat kasb etadi: Yuqori norasmiy sektor, zaif soliq ma'murchiligi va institutsional cheklovlar bir vaqtda mavjud bo'lgan sharoitda kichik va o'rta bizneslarga nisbatan optimal soliq siyosatini ishlab chiqish juda murakkab vazifadir.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlari YaIM ning 54,9 foizini (2021) va bandlikning 86 foizini tashkil etgan. 2019-yilgi yangi tahrirdagi soliq Kodeksi kuchga kirishi kichik va o'rta biznes uchun soddalashtirilgan tizimni yangiladi, biroq yuqori soliq yuki, murakkab hisobot talablari va norasmiy sektordagi yashirin raqobat muammolari hali to'liq hal etilmagan.

Asosiy qism. Kichik biznesni soliqqa tortish nazariyasining asosini J. Mirrlees (1971) ishlab chiqqan optimal soliq nazariyasi tashkil etadi: soliq tizimi ijtimoiy farovonlikni maksimallashtirish uchun iqtisodiy faollikka minimal to'siq yaratib, maksimal daromad ta'minlashi lozim [1]. Ushbu yondashuv kichik va o'rta biznes subyektlari uchun alohida ahamiyatga ega, chunki ular katta kompaniyalardan farqli ravishda soliq yukiga nisbatan ancha sezgir bo'ladi.

M. Allingham va A. Sandmo (1972) o'zlarining klassik modelida soliq muvofiqligini (tax compliance) kutilayotgan foyda va jazo xavfi o'rtasidagi muvozanat sifatida izohlaydi [2]: soliq to'lovchi soliq to'lamaslik orqali oladigan foyda, aniqlanish ehtimoli va jazoning mahsulidan oshganda qoidabuzarlikka moyil bo'ladi. Bu model kichik va o'rta bizneslarda norasmiy faoliyatning iqtisodiy sabablarini tushuntirishda muhim nazariy asos beradi.

S. Djankov va boshqalar (2010) 85 mamlakat bo'yicha o'tkazgan tadqiqotida korporativ soliq stavkasining 10 foizga oshishi yangi korxonalar ro'yxatga olinishini 1,9 foizga pasaytirishini empirik isbotladi [3]. Ushbu natija soliq yukining kichik va o'rta biznes subyektlari faolligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi va O'zbekiston uchun ham muhim metodologik yo'nalish beradi.

OECD (2021) kichik va o'rta biznes subyektlarini soliqqa tortish bo'yicha maxsus hisobotida soliq tizimining murakkabligi va muvofiqlik xarajatlari kichik biznes uchun eng katta to'siq ekanini ta'kidlaydi [4]. Hisobotga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlarida soliq muvofiqligi xarajatlari yirik kompaniyalarga nisbatan ularga nisbatan 2-3 barobar yuqori, bu esa ularning raqobatbardoshligini pasaytiradi va norasmiy sektorga o'tishni rag'batlantiradi.

Jahon banki (2023) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlarda soliq to'lash uchun sarflanadigan vaqt yiliga 181 soatni tashkil etadi, bu OECD o'rtacha ko'rsatkichi (163 soat) dan yuqori [5]. Soliq to'lovlar soni 10 taga tushirilgan bo'lsa ham, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun hisob-kitob yuritish va hisobot topshirish jarayoni hali ham murakkab bo'lib qolmoqda.

IMF (2023) fiskal monitoring hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda soliq-YaIM nisbati 11,99 foiz (2022) ni tashkil etib, rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtacha darajasi (17,3%) dan past [6]. Bu ko'rsatkich kichik va o'rta biznes subyektlarida norasmiy sektorning keng tarqalganligini va soliq bazasining to'liq kengaymaganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2019-2023-yillar davomida soddalashtirilgan soliq tizimidan foydalanuvchi kichik va o'rta biznes subyektlari

soni 28 foizga oshdi. Aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 4 foizga tushirilishi va elektron hisob-faktura tizimining joriy etilishi ushbu subyektlarda rasmiy ro'yxatga olish darajasini oshirishga xizmat qildi. Biroq bir qator muammolar — soliq tekshiruvlarining nisbatan ko'pligi, imtiyozlarga kirish cheklanganligi, moliyaviy xizmatlar narxi qimmatligi — hali ham dolzarb muammolar sifatida qolmoqda.

R. Bird va P. Gendron (2007) rivojlanayotgan mamlakatlar uchun kichik va o'rta biznes subyektlardagi soliq siyosatini tahlil qilib, quyidagi uchta asosiy muammoni belgilaydi [7]: birinchidan, soliq muvofiqligi xarajatlarining yuqoriligi; ikkinchidan, soliq ma'murchiligining zaif institutsional salohiyati; uchinchidan, kichik va o'rta biznes subyektlari va yirik firmalar o'rtasidagi soliq yukidagi nomutanosiblik. Ushbu muammolar O'zbekistonda ham bir munchasa qolib qolinmoqda.

E. Friedman va boshqalar (2000) 69 mamlakat bo'yicha o'tkazgan tadqiqotida soliq yukining oshishi norasmiy sektorni qisqartirish o'rniga kengaytirishini ko'rsatdi [8]: soliq yuki og'ir va ma'murchiligi zaif bo'lgan mamlakatlarda tadbirkorlar rasmiy tizimdan norasmiy sektorga o'tishi tezlashadi.

Demak, soliq stavkasini pasaytirishning o'zi ijobiy natijalarfga erishish uchun yetarli emas — soliq ma'murchiligi sifatini ham bir vaqtda yaxshilash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2023) ma'lumotlariga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlarida YaIM da 54,9 foiz (2021) va bandlikda 86 foiz ulushni tashkil etadi [9].

Ushbu ko'rsatkichlar kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi va ularni soliqqa tortish siyosatini takomillashtirish masalasini birinchi darajali davlat siyosati vazifasiga aylantiradi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar va empirik ma'lumotlar asosida kichik va o'rta biznes subyektlarini soliqqa tortish muammolari va yechimlarini yaxlit tarzda ko'rsatuvchi model qurish mumkin.

Ushbu model uchta asosiy yo'nalishdan iborat bo'lib: asosiy muammolar, ularning sabablari va yechim yo'nalishlarini qamrab oladi.

1-chizma.

Kichik va o'rta biznes vakillarini soliqqa tortish muammolari va ularning yechimlar bo'yicha model¹⁴

ASOSIY MUAMMOLAR	MUAMMOLAR SABABLARI	YECHIM YO'NALISHLARI
<ul style="list-style-type: none"> ● Yuqori soliq yuki va muvofiqlik xarajatlari ● Murakkab hisobot va hujjatlashtirish ● Soliq tekshiruvlari nisbatan ko'pligi ● Imtiyozlarga kirish cheklanganligi ● Norasmiy raqobat bosimi ● Moliyaviy xizmatlar 	<ul style="list-style-type: none"> ● Soliq ma'murchiligining institutsional zaifligi ● Raqamlashtirish darajasining pastligi ● Soliq qonunchiligining tez-tez o'zgarishi ● Soliq to'lovchilar malakasining yetarli emasligi ● Norasmiy sektorning yuqoriligi 	<ul style="list-style-type: none"> ● Soddashtirilgan tizimni yanada takomillashtirish ● Raqamli soliq ma'murchiligini yanada kuchaytirish ● Risklarga asoslangan nazorat tizimi ● kichik va o'rta biznes vakillari uchun soliq konsultatsiyasi

¹⁴ Manba: Mirrlees (1971), Allingham-Sandmo (1972), OECD (2021), DSQ (2023) asosida mualliflar tomonidan shakllantirildi.

ASOSIY MUAMMOLAR	MUAMMOLAR SABABLARI	YECHIM YO'NALISHLARI
qimmatligi	<ul style="list-style-type: none"> Nazorat va rag'batlar muvozanati yo'qligi 	<ul style="list-style-type: none"> Imtiyozlar tizimini shaffof qilish Soliq stavkasini bosqichma-bosqich optimallashtirish

Xulosa va tavsiyalar.

Umuman olganda, yuqorida tahlil qilingan modelning asosiy g'oyasi shuki, kichik va o'rta biznes vakillarini soliqqa tortish muammolari faqat soliq stavkalarining yuqoriligi bilan emas, balki soliq ma'murchiligi sifati, muvofiqlik xarajatlari va institutsional muhit kompleks ta'sirida belgilanadi.

O'zbekiston uchun eng muhim vazifa — kichik va o'rta biznes vakillarining soliq yukini kamaytirish bilan birga, rasmiy sektorda ishlashni norasmiy sektorda ishlashdan ko'ra foydali qiladigan tizimli mexanizmlarni yaratishdir.

Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik va o'rta biznes vakillarini soliqqa tortish tizimi 2019-yildagi soliq sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida sezilarli yaxshilanishga erishdi, biroq bir qator tizimli muammolar hali ham yechilmagan.

Mirrlees optimal soliq nazariyasidan tortib Allingham-Sandmo muvofiqligi modeliga va Bird-Gendron rivojlanayotgan mamlakatlar tahlillariga qadar bo'lgan ilmiy meros shuni tasdiqlaydi: kichik va o'rta biznes vakillarini soliqqa tortishda soliq siyosatining samaradorligi faqat stavka darajasi bilan emas, balki soliq ma'murchiligi sifati, muvofiqlik xarajatlari va rag'batlantirish tizimi bilan belgilanadi.

Nazariy merosga ko'ra — Djankov, Friedman, OECD yondashuvlariga asoslanib — kichik va o'rta biznes vakillarini soliqqa tortishni takomillashtirish uchun kompleks chora-tadbirlar zarur. Shu boisdan O'zbekiston uchun quyidagi strategik tavsiyalar dolzarb ahamiyat kasb etishi mumkin:

Birinchidan, risklarga asoslangan soliq nazorati tizimini joriy etish zarur: barcha kichik va o'rta biznes vakillarinarini tekshirish o'rniga, yuqori risk ko'rsatkichiga ega bo'lgan korxonalar ustuvor e'tibor qaratish soliq tekshiruvlari xarajatlarini kamaytiradi va tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi.

Ikkinchidan, kichik va o'rta biznes vakillari uchun bepul yoki arzon soliq konsultatsiya xizmatlarini rivojlantirish — davlat-xususiy sheriklik asosida — soliq muvofiqligini oshirish va norasmiy sektorni qisqartirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Uchinchidan, soddalashtirilgan soliq tizimini yanada takomillashtirish lozim: aylanma olinadigan soliqda belgilangan chegarani oshirish, hisobot shakllarini qisqartirish va elektron xizmatlarni kengaytirish kichik va o'rta biznes vakillari uchun rasmiy iqtisodiyotda ishlashini yanada qulaylashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirrlees, J.A. (1971). An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation. *Review of Economic Studies*, 38(2), 175–208.

2. Allingham, M.G., & Sandmo, A. (1972). Income Tax Evasion: A Theoretical Analysis. *Journal of Public Economics*, 1(3-4), 323-338.
3. Djankov, S., Ganser, T., McLiesh, C., Ramalho, R., & Shleifer, A. (2010). The Effect of Corporate Taxes on Investment and Entrepreneurship. *American Economic Journal: Macroeconomics*, 2(3), 31-64.
4. OECD. (2021). Taxation of SMEs in OECD and G20 Countries. OECD Tax Policy Studies, No. 23. Paris: OECD Publishing.
5. World Bank. (2023). Paying Taxes 2023: Global Report. Washington: World Bank Group & PwC.
6. IMF. (2023). Fiscal Monitor: On the Path to Policy Normalization. Washington: International Monetary Fund.
7. Bird, R.M., & Gendron, P.P. (2007). The VAT in Developing and Transitional Countries. Cambridge University Press, Cambridge.
8. Friedman, E., Johnson, S., Kaufmann, D., & Zoido-Lobaton, P. (2000). Dodging the Grabbing Hand: The Determinants of Unofficial Activity in 69 Countries. *Journal of Public Economics*, 76(3), 459-493.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). O'zbekiston raqamlarda 2022: statistik to'plam. Toshkent.
10. Urinboev, U. O. (2024). Cluster Development in Uzbekistan's Economy: Production Volume, Investment Flows, AND Export Dynamics (2022-2024). *American Journal of Business Management, Economics, and Banking*, 43, 50-56.
11. Ravshanbekovich, Y. S. A. (2025). FUNDAMENTAL AND THEORETICAL BASIS OF TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURSHIP AND FREELANCE ACTIVITY. *PEDAGOG*, 8(6), 120-123.
12. Niyozmetov, D. R. (2023). THE WAYS OF ASSESSING COMPETITION BETWEEN COMMERCIAL BANKS. *International Journal Of Management And Economics Fundamental*, 3(09), 45-50.
13. Aarthi, S., Ravikumar, R. N., Balakrishnan, R., Pavithra, K., & Jumaniyozov, F. (2026). Blockchain for Seamless and Transparent Smart Hospitality Operations. In *Smart Operations and Enhancing Guest Experience in the Hospitality Industry* (pp. 187-218). IGI Global Scientific Publishing.
14. Garia, P., Mamadiyarov, Z., Jumaniyozov, F., Deogaonkar, A., Vichoray, C., & Mittal, A. (2025, August). Comparative Analysis of Random Forest and ANN Models for Urban Air Quality Index Prediction. In *2025 3rd International Conference on Sustainable Computing and Data Communication Systems (ICSCDS)* (pp. 238-243). IEEE.
15. Jumaniyozov, F. (2024). Opportunities to create new jobs in the context of the transition to a 'green' economy. *University Research Base*, 264-267.
16. Jumaniyozov, F. (2025). Xudarganov T. Hududlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishining xorij tajribasi. *Молодые ученые*, 3, 18.
17. Jumaniyozov, F. (2025). Mintaqada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil mehmonxonalar ahamiyati. *University research base*, 272-275.

18. Sherjonov, S., Axmedova, D., Masharipova, X., Niyozmetov, D., & Jumaniyozov, F. (2025, November). The impact of CO2 emissions and renewable energy on economic growth in Uzbekistan: A VECM analysis. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3331, No. 1, p. 030024). AIP Publishing LLC.

19. Sabbir, S., Karmakar, S., Ghosh, A., Jumaniyozov, F., Akhmedov, S., Aziz, M. T., & Mahmud, T. (2025, July). A Novel Hybrid Approach for Load Forecasting: Multi-Head Attention Integrated LCG Model with Statistical Outlier Management. In 2025 International Conference on Quantum Photonics, Artificial Intelligence, and Networking (QPAIN) (pp. 1-6). IEEE.